

TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH – ZAMON TALABI

A.T.Baltayeva

N.S.Axrarova

S.A.Abduraxmanova

*Toshkent davlat transport
universiteti o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy tafakkur xuddi mustaqil fikrlash singari murakkab aqliy faoliyat bo'lib, har bir o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan g'oyalari, mantiqiy asosga ega bo'lgan dalillarni shakllantirishi jarayoni ekanligi, tanqidiy fikrlash salohiyatiga ega bo'lgan o'quvchi qarorlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini farqlay olishi, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, o'quv faoliyatiga tuzatishlar kiritishi kabi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Eydos-konspekt, kitobxon, retseptiv estetika, kitobxonlik kompetensiyasini, o'quv jarayonini, "kitobxon obrazi".

Bugungi kun adabiy ta'lim jarayoni o'quvchini shunchaki mutolaa kishisidan o'zining tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlashdan cho'chimaydigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlilini zamonaviy yondashuvlar, xususan, retseptiv yondashuv vositasida interaktiv metod va usullar bilan tashkil etish o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini, ijodiy fikrlarini va hissiy barkamolligini kamol toptiradi.

Bugun ta'lim tizimi rivojlangan AQSH, Germaniya, Daniya singari mamlakatlarda o'quvchi tanqidiy tafakkurini o'stirish Eydos konspekt vositasida ochiqlanishini ta'kidlab o'tish lozim.

Eydos grekchadan ko'rinadigan, ko'rinadigan bo'lib qolish ma'nosini ifodalovchi so'zdan kelib chiqqan bo'lib, dastlab antik falsafaga oid atama sifatida qo'llangan. Konspekt lotinchadan "conspectus" ko'rinish, ko'rib chiqish, tezis kabi ma'nolarni ifodalab, o'quvchining biror asar mavzusi va syujeti asosidagi qisqacha mulohazalaridir. Aytish mumkinki, adabiy ta'limda "Eydos konspekt" kitobxon-o'quvchining badiiy asar voqealaridan ta'sirlanishi natijasida yuzaga kelgan hissiyotlarining aksi, kitobxon qarashlarining, sezimlarining tasvirli ko'rinishi, asarning kitobxon kashf etgan topilmasi, obrazli mulohazalarining uyg'un holatdagi namunasi, ijodiy-badiiy talqinidir.

Eydos-konspekt o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning qiziqarli texnikasini ishlab chiqishda xoh u she'riy yoki nasriy asar bo'lsin, uni to'liq anglash uchun yordam beradi. U nafaqat badiiy asarni samarali tahlil qilish uchun, balki bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kitobxonlik sifatlarini oshirish,

adabiyot darslarida obrazli tafakkur va motivatsiyani oshirish uchun ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan usuldir. Shuningdek, u mohiyatan ta'limdagi xalqaro standartlarning barcha talablariga javob bera olishi, agar to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishi bilan dolzarbdir. Eydos-konspekt usulidan foydalanish o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida:

- o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish;
- bilimlarni nazorat qilishni takomillashtirish;
- o'quvchilarning bilim sifatini oshirib, o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish;

- o'quvchi tanqidiy tafakkurini rivojlantirish;
- adabiyot darslarida kitobxonning estetik didini tarbiyalash;
- kitobxonlik kompetensiyasini o'stirish;
- darsda kutilgan va kutilmagan vaziyatlarni yuzaga keltirish.

Eydos konspekt yozuvchi, badiiy matn, o'quvchi o'rtasidagi muloqotni shakllantirish usullaridan biri sifatida asar voqealaridan ta'sirlangan kitobxon javobining aks etishi e'tiborlidir.

O'qilgan asarning g'oyasi, adabiy qahramoni, badiiy dunyosining assotsiativ namunasi sifatida kitobxon javobini belgilab beradi. Kitobxon o'z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib, badiiy asarning shaxsiy talqinlarini yaratadi. Bu talqinlar faqat so'z yordamida emas, tasvir, diagramma, ranglar yoki asarda o'quvchi muhim deb hisoblagan kalit so'zlar, jumlar vositasida ifodalanishi mumkin. Bu usul kitobxon, muallif va asarning o'zaro muloqotga kirish imkoniyatini yaratadi. Darsni bu usul yordamida tashkil etish kitobxon-o'quvchilar orasida xilma-xil talqinlarni yaratib, ayrim hollarda munozarali tus olishi ham mumkin.

Kitobxon biror bir badiiy asarni mutolaa qilar ekan, uning ko'z o'ngida muallifning ijod jarayoni, ruhiy holati, uning fikrlari va ifoda usullari e'tibor markazida bo'lgan. XX asrning 60-yillarida esa olimlar kitobxon nuqtayi nazarini o'zining shaxsiy qarashlari asosida o'zgartirib, ulardan tegishli xulosalarni chiqarganlar. Hatto Germenevtika – matnlarni talqin qilish fani ham asarning ma'nosini chuqurroq anglash uchun kitobxon idrokini o'rgangan. Aynan germenevtlar adabiyotshunoslarning bu boradagi fikrlarni o'zgartirishga undadi.

Retseptiv estetika nazariy yondashuv sifatida o'tgan asrning 60-70-yillarida maydonga kirib kelgan bo'lsa ham uning dastlabki belgilari qadimgi zamonlardan beri mavjud bo'lib kelgan. Retseptiv estetika so'zi nemischadan "Rezeptions-Asthetik", lotinchadan "retseptio" so'zidan olingan bo'lib, badiiy asarning kitobxon tomonidan qabul qilinishini ifodalaydi.

Badiiy asar uygʻotgan taassurotlar va holatlar orqali inson ruhiyatining tozarishi Aristotel qarashlaridayoq oʻz ifodasini topgan. Aflotun esa retsipyent ruhiyatiga taʼsir koʻrsatuvchi badiiy asarlarning “magnit kuchi” haqida fikr yuritgan. Retseptiv estetika badiiy asarni muallif nuqtayi nazariga asoslangan izohlash va talqinlardan iborat degan qarashlarni rad etib, kitobxon qarashlarining polisemiyasini tasdiqlaydi. Bunda asar muallifi va retsipyent orasida tenglik belgisi qoʻyilib, ular oʻrtasidagi chegaralar barham topadi. A.I.Beletskiy “muallif obrazi” va “kitobxon obrazi” muammolarini toʻliq oʻrganish zaruriyatini aynan “oʻquvchi obrazi” muallif darajasida boʻlmasa ham badiiy asar gʻoyasini shakllantirish funksiyasiga ega ekanligi bilan izohlagan. Olim “muallif – obraz – oʻquvchi” estetik triadasida asosiy eʼtiborini oʻquvchiga qaratdi¹. Retseptiv estetika shuni koʻrsatadiki, kitobxonning badiiy matn haqidagi xulosalari, uning shaxsiy qarashlari asar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mutolaa jarayoni asarni yana ham jonlantirib, kitobxonning qalb koʻzgusida qayta yaraladi. Ayni paytda retseptiv estetika kitobxon potensialini kashf qilish uchun muhim omil boʻlib xizmat qilishi mumkin. Bugun tayyor axborot bilan taʼminlangan jamiyatda oʻquvchilarni oʻqitishga va shaxsiy fikriga ega boʻlishga muntazam undash, oʻzlari uchun va oʻz tajribalari ichida javoblarni qidirishga oʻrgatish kerak. Buning uchun adabiyot darslarida badiiy asar mutolaasini faol va jonli jarayonga aylantirish lozim. Oʻquvchini kitob oʻqishga, mutolaa qilishga oʻrgatishni samarali tashkil qilish koʻp jihatdan oʻqituvchiga bogʻliq.

Yuqoridagilardan tashqari quyidagi “Maʼruza”, “Adabiy suhbatlar”, “Ekskursiya”, “Ijodiy oʻqish”, “Evristik”, “Tadqiqotchilik”, “Reproduktiv”, “Savol-javob” singari umumiy va “Badiiy sharhlash va izohlash”, “Tanqidiy-publitsistik”, “Adabiy izlanish” kabi bevosita adabiy taʼlimga xos boʻlgan metodlardan foydalanish ham tanqidiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy tafakkur texnologiyasiga xos xususiyatlar oʻzbek va dunyo olimlari, psixologlar, metodistlar tomonidan turli xil rakurslarda oʻrganilgan, rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan va bu borada koʻplab samarali usullar ishlab chiqilgan. Bu usullar oʻquvchilar orasida kitobxonlik va kitobsevarlikni rivojlantirib, oʻqiganlarini uqish va hayotda nostandart vaziyatga duch kelganda toʻgʻri yechim topish, sodda qilib aytganda, badiiy adabiyotdan oʻrganganlarini hayotiy ehtiyojlari uchun qoʻllash koʻnikmasini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltaeva A.T. Adabiyot darslarida oʻquvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga oʻrgatish texnologiyasi. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2020. – 166 b.

2. Балтаева Анаджан Таджибаевна, Пирназарова Садокат Хамдам кизи. Технологии обучения учащихся критической оценке героев художественного произведения на основе когнитивного подхода. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak sportchilarning til o'rganish mahoratini rivojlantirish strategiyalari: muammolar, yechimlar Uzbek State University of Physical Education and Sport Strategies for the Development of Language Learning Skills of Future Athletes Based on the Cognitive Approach: Problems, Solutions. March 25, 2025. 199-204.
3. A. T. Baltayeva. THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTICS IN PRIMARY EDUCATION: INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES IN FINLAND AND UZBEKISTAN. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, Vol. 3. 5, (2025) ISSN Online: 2961-0389 Website: <https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/index>.36-42.
4. A.T.Baltayeva. FINLANDIYA VA O'ZBEKISTONDA INNOVATION PEDAGOGIK YONDOSHUVLAR. Vol. 44 No. 3 (2025): LUCHSHIE INTELLEKTUALNIYE ISSLEDOVANIYA | CHAST-44 | TOM-3.398-404.
5. Baltayeva, I. T., Baltayeva, A. T., Axmedova, M. A., Axmedova, M. M., & Kazaqov, R. T. (2024). USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING. *Modern Science and Research*, 3(2), 709-718
6. Boltayeva, I. T., Boltayeva, A. T., Axmedova, M. A., Axmedova, M. M., & Kazoqov, R. T. (2024). PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION. *Modern Science and Research*, 3(2), 561-569.
7. A.T.Baltayeva. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini o'quvchilarni tanqidiy baholashga o'rgatishga tayyorlash metodikasi. O'quv q'ollanma. Toshkent, "LESSON PRESS" nashriyoti, 2023, 105- bet.
8. **Baltayeva I., Baltayeva A., Tursunova N. Unique reproduction is away from revealing literary success. Vidyabharati international interdisciplinary research journal TURKEY. (<http://www.viirj.org/specialissues/indexing> : ESCI (Web of Science) 2021/SP2108/SP2108.html**
9. **Baltayeva I. Drip the role and importance of tradition in literary succession (On the example of the work of Abdulla Qahhor). South Asian Academic Research Journals (SAARJ). ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Impast Factor-SJIF-2021.10.**
10. Baltaeva A., T. Amanlikova N.R. Computer interaction with students in language teaching //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – S. 060025.

11. Baltayeva A. T. Designing lessons aimed at teaching students to critically evaluate the personality of the heroes of the work of fiction //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 947-952.
12. Baltayeva A. T. Shaping the critical thinking of pupils at literature lessons //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 7. – №. 10. – S. 6-8.
13. Baltayeva A., Xalikberdiyeva N. FORMATION OF CULTURAL COMMUNICATION IN RUSSIAN-SPEAKING GROUPS //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 20.
14. Boltayeva O., Pirmazarova S. THE EXPRESSION OF TRUE HUMAN FEELINGS IN ALISHER NAVOI'S EPIC" FARHAD AND SHIRIN" //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 24.
15. Boltayeva O. ALISHER HAVOIY ASARLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH //"Science Shine" International scientific journal. – 2023. – T. 6. – №. 1.
16. Baltayeva A. T. SHE'R KISHI RUHINING SEROHANG SOZI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 81-84
17. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – S. 561-569.
18. AnadjanTadjibayevna B. Importance of Distance Education Today //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 46. – S. 191-194.
19. Baltayeva A. T. Teaching students to critically evaluate the characters of a work of art in literature classes. "Language and literature education". 2021. Number 5. 294-300 p.
20. Baltayeva A. T. Students to the Heroes of the Artistic Work Non-Traditional that Teaches Critical Evaluation Lessons. International Journal on Orange Technologies (IJOT) VOL. 3 NO. 4 (2021): IJOT 432-434. www.iupr.ru
21. Baltayeva O. T. Development of reading activity by teaching students to critically evaluate the characters of the literary work. Journal of Pedagogy 2021. Issue 6. 54-57 b.